



O'ZBEK VA INGLIZ MAQOLLARINING JAMIYATDAGI TUTGAN O'RNI VA  
ULARNING O'RGANILGANLIK DARAJASI

Nazarova Gulbahor Pirmanovna

*Buxoro Davlat Universiteti, PHD*

*gulbakhorn@mail.ru*

Roxila Bafoeva

*Buxoro Davlat Universiteti, 2-bosqich magistratura talabasi*

*r.v.bafoeva@buxdu.uz*

Barchamizga ma'lumki, ona tilimiz bo'lmish o'zbek tili-har tomonlama boy til hisoblanadi. Ingliz tili esa yevropa tillari orasidagi barcha til imkoniyatlarini o'z ichiga olgan, keng qo'llanish imkoniyati ega bo'lgan tillardan biri hisoblanadi. Bu tillarda mavjud bo'lgan o'ziga xos xususiyatlar ushbu tillarning qiymatini ifodalaydi. Masalan, o'zbek tili o'zining tasviriy ifoda vositalariga seroblighi, aynan bir turdagi ma'noning turli usullarda ifodalanishi, tilning bo'yoqdorligi o'zbek maqollarida yaqqol namoyon bo'ladi. Garchi bu imkoniyatlarning barchasini ingliz tili doirasida ko'ra olmasak ham, ingliz maqollari ham uzining xilma-xilligi, ifoda usullari va ma'noning aniq ifodalana olishi bilan xarakterlanadi. O'zbek maqollarida biz asosan, o'zbek xalqining donoligi, milliy madaniyati, mentaliteti, an'anaviy o'zbekona turmush tarzi kabi mavzularning mohirona tarzda yoritilganini ko'rishimiz mumkin. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: "...o'zlikni anglash milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy – ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili bu millatning ruhidir"<sup>1</sup>. Ingliz maqollarida biz asosan, ushbu millatning dunyoqarashi, muammoli vaziyatlardan oqilona chiqish usullari, kundalik hayot, ish hamda munosabatlarga doir masalalar ifodasini ko'rishimiz mumkin. Har bir tilning adabiyoti shu millatning ensiklopediyasidir. Ushbu ensiklopediya esa, asosan, xalq og'zaki ijodi bilan yoritiladi, maqollar bundan mustasno emas. Ularni o'rganish, asl ma'nosini anglash, mag'zini chaqish, hayotiy xulosalar chiqarish, ayniqsa, ularni kundalik turmushda amalda va yoshlar tarbiyasida katta o'ringa ega bo'lsa, bu maqollarning tili, mazmundorligi, so'z boyligi, jamiyatda tutgan o'rnini idrok etish har qanday millat a'zosi uchun muhim omil bo'lib hisoblanadi.

O'zbek va ingliz xalqining boy ma'naviy merosining ajralmas bo'lagi hisoblangan maqol va iboralarni o'rganish, ularni tahlil qilish, ushbu vositalarda aks etgan millat hayoti, urf-odatlar, mentaliteti, insoniy tuyg'ular ifodasini namoyish etish har doim dolzarb masala bo'lib hisoblanadi. Bu xususida Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning shunday fikrlari bor: "Ma'naviyati, o'z xalqining tarixini, uning madaniyatini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi"<sup>2</sup>. Maqollarni o'rganish qadim davrlardan beri nafaqat adabiyotshunoslik, tilshunoslik sohasining ham oldida turgan

<sup>1</sup> Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – Yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

<sup>2</sup> Karimov I. A. O'zbekiston milliy istiqlol iqtisod, siyosat-mafkura. 6 tomlik. -T.: O'zbekiston, 1996, 80-bet



muhim muammolardan biridir. Maqol insonlarning, ayniqsa yoshlarning ongini o‘stiradi, ularda yaxshi insoniy sifatlarni shakllantirishga yordam beradi, xususan, to‘g‘riso‘zlik, rostgo‘ylik, mehnatsevarlik, fidoyilik, mardlik, jasurlik, sabotlilik va matonatli bo‘lishlilik shular jumlasidandir. Demak, maqollar kishida insoniy fazilatlarni targ‘ib etadi vosita desak, adashmaymiz. Kundalik hayotda so‘zlashuv jarayonida nafaqat o‘zbek millati, shuningdek boshqa millatlar, xususan, inglizlarning ham maqollarga murojaat etishiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. “Maqol” atamasining etimologiyasiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, arabcha qavlun- gapirmoq, aytmoq so‘zidan kelib chiqqan. Maqollar istalgan tilda qoliplashgan holda namoyon bo‘ladi, o‘zbek va ingliz maqollari ham shular jumlasidandir. Maqollar tarkibidagi so‘zlarni boshqa so‘zlar bilan almashtirish, qo‘shimcha ma‘no beruvchi vositalarni qo‘shish har qanday til doirasida mumkin emas. Maqollar har bir millat va xalqning avloddan avlodga o‘tib kelayotgan milliy, madaniy va ma‘naviy merosi desak, adashmaymiz. Maqollarni lingvokulturologik nuqtayi nazaridan o‘rganish bugungi kun jahon tilshunosligi oldidagi muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Maqollarga adabiy til nuqtayi nazaridan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta‘minlash uchun undan foydalanish hamma zamon va makon so‘z san‘atkorlarining diqqat markazida bo‘lgan. Xususan, o‘zbek va ingliz yozuvchilari ham bundan mustasno emas. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg‘uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Muqimiy, Furqat, Hamza, Sadridin Ayniy, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, chet el yozuvchilaridan Villiam Shekspir, Manik Joshi, Sam Filip, Jerimi Teylor, Joanna Vilson, Villiam Jorj Smis, Jon Ray va boshqa ko‘plab ijodkorlarning asarlari sinchiklab o‘rganilsa, ularning tarkibida qanchadan – qancha maqollar borligini ko‘ramiz. Folklorshunos va etnograf Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk” asarida turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan 275 ga yaqin maqol va matallar keltirilgan. Bu o‘rinda adabiyotimiz tarixida maqollar asosida yaratilgan asarlar ham mavjudligini alohida ta‘kidlab o‘tish zarur. Masalan, Muhammad Sharif Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari tarkibida 300dan ortiq maqol bor. H.Vamberining 1867-yilda Leypsigda nashr etilgan “Chig‘atoy tili darsligi” xrestomatiya – lug‘atiga o‘zbek folklori va adabiyotining ayrim namunalari qatori 112 ta maqol kiritilgan bo‘lib, ularning nemis hamda ingliz tilidagi tarjimai ham berilgan. P.U.Bakirov tomonidan “O‘zbek, rus, qozoq tilidagi maqollarning semantik struktur tahlili” amalga oshirilgan. Sh.Shomaqsudov tahriri ostida o‘zbek maqollari haqida “Hikmatnoma” nomli kitob chiqarilgan. Jon Ray tomonidan “Ingliz maqollarining to‘liq majmuasi” yozilgan. Mashhur yozuvchi Ronald Ridot tomonidan “Ingliz maqollarining tasnifi” asari yaratilgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. -Toshkent: Ma‘naviyat, 2008.
2. Karimov I. A. O‘zbekiston milliy istiqlol iqtisod, siyosat-mafkura. 6 tomlik T.: O‘zbekiston, 1996.
3. Koshg‘ariy M. “Devonu lug‘atit turk” I tom. -Toshkent.: 1960.



4. Mirzayev T. "O'zbek xalq maqollari". –Toshkent: 2003.
5. O'zbek xalq maqollari. –Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.
6. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq 2012.